

“ERKIN DEYA ATALGAN ISYON YOXUD YURAKDAN SACHRAGAN  
SATRLAR!”

Saparbayeva Ziyoda Rustamboy qizi

*Freshman at Uzbekistan state world languages university*

“She’r hayot g’oyalarini juda tez ilg’ab oladi deganda, shuni aytsalar kerak. Resputinning 1985-yildachiqqan qissasi “Yong’in” deb atalgani va xuddi Erkin Vohidov jar solayotgan hodisalardan qattiq va keskin ogohlantirayotgan adabiyot o’z oliyjanob ishini vijdon bilan ado etayotganini yana bir karra ko’rsatadi.

(yozuvchi, tarjimon, tanqidchi Ibrohim G’afurov)

Munavvar tong... Yorug’ olam... Tong belanchagiga belangancha quyosh olamga asta ta’zim qilmoqda. Adabiyot tonggi, she’riyat olami, tong nafasi! Bu so’z eshitilishi bilan ko’z o’ngimda beixtiyor Erkin Vohidov gavdalanadi. Chunki Erkin Vohidov she’riyatida tabiatga yaqinlik bor. Tabiat bilan tillashish asnosida shoirning ko’ngli ham tabiat singari beozor ekanligining guvohi bo’lamiz. O’qtin-o’qtin ko’z oldimda Erkin Vohidov- isyon sifatida gavdalanadi. Ha haqiqiy isyon! U shunday isyonki, ilk mashqlaridanoq adabiyot atalmish bo’stonni o’z she’riyati bilan, she’r dunyosini qalbidagi g’alayonlar bilan boyitib bordi. Isyonkor vujudida kechayotgan she’r dardi, so’z dardi buning yaqqol ifodasidir. G’afur G’ulom ta’biri bilan aytganda: “Mudragan aruzni uyg’otib yubordi” bu albatta oson ish emas edi, lekin Erkin Vohidov buning uddasidan chiqdi, g’azallarida arab va fors so’zlaridan foydalanmasdan, sof o’zbek tilida g’azallar yaratdi. Yoshligidan katta-katta shoirlar e’tiboriga tushdi, e’tirofiga sazovor bo’ldi. She’riyat otashida porillayotgan iste’dodi unga chin ma’noda “ko’maklashdi”. Ko’nglida mavjlanayotgan dengiz, daryo bir zum unga tinchlik bermadi, dilidagi g’alayonlar so’z bo’lib, she’r bo’lib chiqaverdi. “Ijodiy jasoratlar”ga qodir edi shoir.

“She’r nima, so’z nima?” - deyishsa, “She’r-qalb amri, yurak dardining qog’ozdagi ifodasi, lekin ayni o’zi emas”, - degan bo’lar edim. Erkin Vohidovning beo’xshov tashbehlari kishini mushohadaga chorlaydi. Shoirning “Uchi tugik dastro’mol” she’rida shunday satrlar bor.

O’ylab ko’rsam, miyamizning o’zi ham  
O’n to’rt milliard uchi tugik dastro’mol.



Kim o'ylabdi deysiz, nerv tolalari birikib, uchi tugik dastro'molga o'xshashini! Aslida shoirning shoirligi ham shunda: hech kim o'ylab ko'rmagan narsalarni o'ylash, biror narsaga hamma bir xil nazar bilan qarasa, shoir unga boshqa nazar bilan, o'zga ko'z bilan qarashida namoyon bo'ladi. Bu ko'z-shoirning qalb ko'zi!

**“Tong otadi beozor va jim”**, -deb boshlanuvchi she'rini **“Chirigandan ko'ra daraxtda, Shamollarda yongan yaxshiroq”**, -deb tugallaydi. Shamol aslida majoziy ma'noda- isyon va g'alayonni ifodalaydi.

Adabiyot-bir butun borliq! Adabiyot-shams! Uning uzun, hammani maftun qiluvchi nurlari, yoxud kipriklari bor, ha! quyosh kipriklari! Kiprik ko'zni tashqi ta'sirlardan himoya qilib turganidek, quyosh kipriklari-shoirilar, nosirlar uni yovlardan, safsatabozlikdan, yolg'onchilikdan himoya qilib turadi. Erkin Vohidov o'zining **“She'r haqida she'r”** nomli she'rida she'rning yuki haqida, oldida turgan vazifalar haqida so'z yuritadi:

**She'rim, mana, bitding nihoyat,  
Tunim uyg'oq o'tdi qoshingda.  
Bitding dedim, sevinma faqat,  
Qancha ish bor hali boshingda.**

Anvar Obidjon Erkin Vohidovga yozilgan maqolasida **“Kulish-ochiqko'ngillik guvohnomasi”**, -deydi. Erkin Vohid **“Donish qishloq latifalari”** da Matmusa timsoli orqali kuldirish bilan birga **“jizillatib chaqish”** ni ham unutmaydi. Ya'ni Sharof Boshbekov aytganidek: **“Asar qanday janrda yozilmasin, voqealar qanchalar jiddiy bo'lmasin, yumor, hazil-mutoyiba, askiya unsurlari, so'z o'yinlaridan unumliroq foydalanish kerak. Bu birinchidan, o'qishli qiladi, tamoshaviylikni oshiradi; ikkinchidan, boshqa nuqsonlarini “yopib” ketadi.**”

Shoir **“Tong lavhasi”** she'rida shunday go'zal tasvir vosita yaratadiki, qoyil qolmasdan iloj yo'q:

**...Har nuqtada sayqal berib u,  
Vodiy uzra chizdi zar lavha.  
So'ng quyosh deb imzo chekdi-yu,  
Tongotar deb qo'ydi sarlavha.**

Sadoqat! Aslida sadoqat turlari ko'p. Do'stga sadoqat, vatanga sadoqat, yorga sadoqat va hokazo. Bu so'z vafodorlik so'zining ayni o'zi.

**Keksa qayrag'ochning  
Ildizin ochib,  
Tortdilar qo'sh arqon solib belidan.  
Lekin u tuproqqa panjasin sanchib,**



Sira qo'zg'almasdi  
Ungan yeridan...  
Nihoyat,gurs etib yerga quladi,  
Butab,so'ng qaytarib ketdilar,  
biroq-  
U o'z panjasida olib jo'nadi  
Yashagan yeridan bir siqim tuproq.

Bu she'rni o'qiganimda beixtiyor ko'z oldimda shoh va shoir Z.M.Bobur gavalanaveradi.Bobur ham Hindistonga ketishga majbur edi.Unga o'z vatanidan qovun olib borishganda ko'zlaridan yosh chiqib ketgan edi.Keksa qayrag'och sadoqati tasviri kishi ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsata oladi desam,mubolag'a bo'lmaydi.

...Erkin Vohidov ijodida tarjima asarlari ham katta ahamiyatga ega,tarjimon sifatida Yesenin she'rlarini,nemis shoiri Gyotening qariyb 60 yil davomida yozilgan “Faust” asarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.Asilda tarjima qilish uchun shoirlar yoki yozuvchilar ruhiyati birlashishi kerak deyishadi.Tarjima-ancha nozik ish.Zero,bu haqida Erkin Vohidovning o'zi ham bu haqida shunday satrlar bitadi:

Oy o'rtanar-ko'zlarida yosh,  
Ko'ksi dog'u yuragi qiyma.  
Der:men edim aslida quyosh,  
Nega meni qilding tarjima?!

Rumiyning “Ma'naviy masnaviy”asari tarjimoni Odil Ikrom: “Bir zamon aytilgan badiiy so'z boshqa bir insonning qalb prizmasidan o'tadi ikkinchi insonning,qolaversa, bo'lak bir xalqning borliqqa munosabati ruhiyati bosib o'tgan tarixiy yo'li ila qo'shilib qoriladi,ehtimol yangi jilvalarni namoyon qiladi.Tarjimon muayyan daho ko'tarilgan qavatning ma'lum bir qavatiga chiqadi.Asilda shu kifoya”,-deydi.

Demang,shoir tinib ketdi,  
Siyosatga inib ketdi.  
Va yo aytmangki,mo'rt toldek  
Shamollarda sinib ketdi,-deydi shoir.

Lekin Erkin Vohidov unutiladigan shoirlardan emas,uning mavjlari to'xtamaydi,aksincha,to'lqinlanib,tug'yonlari toshib boraveradi.Muhammad Yusuf aytganidek:

O'zi o'lsa o'lar so'zi o'lmaydi,  
Yurakka ko'milar asl shoirlar!



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Erkin Vohidov “Tabassum” she’riy to’plami;
2. Shukur Qurbon “Erkin Vohidov saboqlari” kitobi;
3. Erkin Vohidov “Mening yulduzim ” she’riy to’plami;
4. Sharof Boshbekov “O’zim haqimda” maqolasi;
5. Muhammad Yusuf “Biz baxtli bo’lamiz, xudo xohlasa” she’riy to’plami.

